

		Hi-Fi- va boshqa qurilmalar	
Basic Imaging Profile	BIP	Rasmlarni uzatish	mobil telefonlar, raqamli kameralar, printerlar
Basic Printing Profile	BPP	Matnni chop etishga uzatish	mobil telefonlar, ShK, printerlar

XULOSA

Xozirgi vaqtda ta'lim jarayonini raqamlashtirishda Bluetooth texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotlar almashinuvidagi eng dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy yutuqlaridan biri xisoblash mashinalarida turli ko'rinishdagi zararli ma'lumotlardan ximoya qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Peter Jöcker: Computernetzwerke, LAN, WLAN, Internet. 3. Auflage. VDE VERLAG GMBH, Berlin und Offenbach 2004, ISBN 3-8007-2739-0.

2. Ralph Steyer: Server für WWW, E-Mail, FTP & Co. - Ein Workshop zum Aufbau und Einsatz von Internetdiensten - unter Windows und Linux. dpunkt Verlag, ISBN 3-89864-276-3

3. Reiko Kaps: WAN-Auffahrt – Mit dem IPv6-Netz online gehen. in: *c't* Heise, Hannover 2008,6. ISSN 0724-8679

O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MASOFALI

O'QITISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Sharipov Nodir Botir o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari kafedراسi o'qituvchisi

Umaraliyev Azizbek Alijon o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari 3-bosqich talabasi

Hozirgi davrda axborot — jamiyat rivojlanishining asosiy vositasidir. Axborot texnologiyalari rolini oshirish uchun kelajakda ular yechishda yordam beradigan

masalalar ko‘lamini kengaytirish talab etiladi. Bu masalalar majmui axborotlashtirish deb ataladi. Buning ma‘nosi zamonaviy kompyuterlar va axborot tizimlari asosida ijtimoiy faoliyatning turli sohalarini qayta qurish, rivojlantirish va samaradorligini oshirishdan iborat.

Kompyuterlashtirish texnik muammolarni hal etishni o‘z ichiga oladi. Axborotlashtirish muammolar majmui bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi, kompyuterlar esa uning texnik asosinigina tashkil etadi.

Umuman olganda, pedagogika, didaktika yagona bir maqsadni — o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va ta‘lim berish maqsadini ko‘zlaydi. O‘quv jarayoni uchun maxsus ishlab chiqilgan texnik qurilmalar juda kam. Faqatgina proyektor va chet tillari darslari uchun lingofon qurilmasini shular qatoriga kiritish mumkin. Pedagogika uchun qolgan boshqa texnik vositalar turmushdan olingan: grammofon, magnitofon, televizor, videomagnitofon va nihoyat kompyuter. Bu foydali qurilmalar inson hayotining turli sohalarini yengillashtirish uchun yaratilgan.

Shunday qilib, pedagoglar o‘quv vositalari tabiiy sifatlarini o‘rganib, ularning didaktik xususiyatlarini keyin, o‘quv jarayonidagi vazifalarini aniqlashga intiladilar. Faqat mana shunday yondashishda navbatdagi texnik vosita haqiqatda o‘quv jarayoni uchun foydali bo‘lishi va ushbu jarayonda, ta‘lim vositalari boshqa tizimlarida o‘zining aniq o‘rnini topishi mumkin yoki ilgari foydalanilgan, eskirib qolgan vositalar xususiyatlarini o‘zida jamlab oladi, yoki ularni to‘ldiradi.

Pedagog olimlar umumiy fikrlariga asosan, biror-bir ta‘lim vositasining didaktik xususiyati deganda, nazariy va amaliy mazmunida didaktika uchun muhim hisoblangan, ularni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy ko‘rsatkichlar, mana shu vositaning belgilari tushuniladi.

Albatta, Internetni ta‘lim vositalari qatoriga kiritish qiyin. Internet-bu global tarmoq barcha imkoniyatlarini, uning barcha xizmatlarini to‘la aks ettiruvchi fan-ta‘lim sohasi ham mavjud bo‘lgan axborot muhitidir. Aynan mana shuning uchun mazkur xizmatlar didaktik xususiyatlarini tushunish, ya‘ni ta‘lim jarayoni uchun foydali bo‘ladigan ko‘rsatkichlarini aniqlab olish kerak.

Masofaviy o'qitishning didaktik xususiyatlarini turlarga ajratishda kompyuter telekommunikatsiyalari xususiyatlari ikkita asosiy sinflarini ajratib ko'rsatish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz:

- ularning telekommunikatsiya bilan bog'liq xususiyatlari, ularning texnologik imkoniyatlari;

- kompyuterlarni (shu jumladan, multimediali) qo'llash bilan bog'liq xususiyatlari;

Bunday turlarga ajratish tushuncha semantikasi mazmunida qulay, chunki tushunchaning o'zi tabiiy qismlarga bo'linishida o'z ifodasini topadi. Bu texnik nuqtai nazardan ham o'zini oqlaydi, chunki tegishli xususiyatlarni ta'minlovchi texnik vositalarning o'zlari ham farq qiladi. Bu pedagogik nuqtai nazardan ham to'g'ri, chunki bu xususiyatlar sinflarining qabul qilinayotgan metodik qarorlarga ta'siri turlicha.

Shunday qilib, telekommunikatsiyalarning xususan, didaktik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish zarurligidan kelib chiqamiz, biroq ularning pedagogik jarayonga ta'sirini aniqlash oson masala emas. Ularning tushunchalariga didaktika bilan aloqalarini keng ko'rsatib, mana shu xususiyatlarni to'g'ri ifoda etish zarur.

Kompyuter telekommunikatsiyalari faqatgina didaktik hisoblanuvchi xususiyatlarini ajratish ma'lum ilmiy ahamiyatga ega. Haqiqatda ham hozirgi kunda kompyuter telekommunikatsiyalari umumiy foydalanish xususiyatlarining bilish keng (gazeta, jurnallar, teleko'rsatuvlardan) tarqalgan. Aynan o'qituvchi uchun qanday qo'shimcha bilimlar talab qilinadi?

Chet el ta'lim tizimlarida masofali o'qitishning tashkil topishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda ta'lim muassalarida masofali o'qitishni amaliy tashkil qilish turli shakllari va variantlarini hamda masofali ta'limni didaktik ta'minlash vositalarini tahlil qilishga e'tiborni qaratish zarur.

Solishtirish metodi mohiyatini xitoy olimi X. Shu va N. Chjoular to'la ochib beradilar: Agarda millat vaqt o'qida o'zining turgan joyini tarixiy yoki vertikal solishtirishlar bilan aniqlay olsa, shunda u millatlararo yoki gorizontal solishtirishlar yordamida dunyodagi o'z o'rnini to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega bo'ladi. Shu

bilan bir vaqtda vertikal solishtirish ishonch uygʻotadi, gorizonta esa realist boʻlishga majbur etadi.

Masofali taʼlim oʻquvchilarga oʻrganilayotgan material asosiy hajmini yetkazib berishni, oʻqitish jarayonida oʻquvchilar va oʻqituvchilarning interaktiv oʻzaro aloqalarini, talabalarga oʻrganilayotgan materialni mustaqil oʻzlashtirish boʻyicha mustaqil ishlash imkonini berishni hamda oʻqish jarayonida ularning olgan bilimlarini va koʻnikmalarini baholashni taʼminlovchi axborot texnologiyalari toʻplami.

Gʻarbiy Yevropada oliy taʼlim olish darajasidan masofali taʼlim ochiq universitetlar deb ataluvchi shakllarda amalga oshiriladi. Milliy ochiq universitetlar koʻp jihatdan sirtqi taʼlim tashkiliy prinsiplaridan foydalanadilar. Ochiq taʼlim asosida oʻquvchilar oʻzlari oldilarida turgan taʼlim maqsadlariga erishishga intilib toʻla mustaqil yoʻnaladigan taʼlim muhiti puxta ishlab chiqilgan.

Masofali oʻqitishda dasturiy vositalarga qoʻyiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qatʼiy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, oʻquv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini taʼminlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari oʻrganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda toʻldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, koʻrgazmalilik, faollashtirish (oʻqitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), oʻqitish natijalarini oʻzlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, oʻqitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq oʻquv fanining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish, maʼlum bir faning oʻziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari oʻzaro bogʻliqliligi, oʻzaro aloqadorliligi, turli-tumanligi, amalga oshirilishi.

Texnik talablarga quyidagilar kiradi: zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test oʻtkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga quyidagilar kiradi: «mijoz-server» arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o‘qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o‘lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo‘nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko‘rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do‘stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduxakimovna, A. S., & Mikhailovich, Y. V. (2023). Application of digital learning technologies in vocational education. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 143-145.
2. Saydivosilov, S. (2022). Training of qualified specialists in the conditions of digitalization of education. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
3. Абдурахманова, Ш. А., & Хасанов, А. А. (2019). Применение wiki-технологий в образовании. *профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и технологии образовательной деятельности*, 95.
4. Elmurzaevich-TSPU, M. O., & Rustamovich, A. J. (2019). The benefits of using information technology in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
5. Мамаражабов О.Э “Булутли технологиялар асосида тармоқ сервисларидан фойдаланиш” KASB-HUNAR TA’LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal 2022-yil, 3-son б. 24-27.

6. Uroкова Sharofat. (2023). Digitalization of education at the present stage of development. World Bulletin of Management and Law, 23, 60-63. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2873>
7. Ilich, M. E. (2022, February). Problems of professional development of future teachers in the field of informatics. In Conference Zone (pp. 193-194).
8. Ilyich, M. E. (2023, November). Aspects of improving the education system in technological universities. In E Conference World (No. 2, pp. 128-137).
9. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).
10. Laylo, B., & Malika, D. (2023). Capabilities of scratch for working with animations. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 1118-1120.
11. Sharofat, O. R. (2023, May). Electronic learning resources and requirements for their creation. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.
12. Bahadir, U. S. (2023, November). Creating a control test in plickers. In E Conference World (No. 2, pp. 107-111).

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАЛАКАЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ

Қодиров Махмуджон Мухаммаджонович

*Тошкент давлат педагогика университети доценти, педагогика фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Аннотация: Ушбу мақола педагогика олий таълим муассасаларида инклюзив таълим тизимида малакали ўқитувчиларни узлуксиз таълимнинг аҳамияти самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: инклюзив, таълим, ривожланиш, ўқувчи, узлуксиз, мутахассис, меҳнат бозори.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги